

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Zukhra Nishonova – DSc (Psychology), Professor

Deputy Editor:

Ranokhon Oripova – PhD (Pedology), Associate Professor
Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi

Editorial Board:

Amina Ruzikulova – PhD (Psychology), Associate Professor
Navoi State Pedagogical Institute

Amina Sultanova – PhD (Psychology), Associate Professor
Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami

Azam Gaybullaev – PhD (Psychology), Associate Professor
Bukhara State Pedagogical Institute

Dilnoza Kodirova – PhD (Psychology)
Bukhara State University

Gulbakhor Yadgarova – PhD (Psychology), Associate Professor
Bukhara State Pedagogical Institute

Khabiba Yusupova – PhD (Pedology), Associate Professor
University of Tashkent for Applied Sciences

Lola Iliyeva – PhD (Psychology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Mirzokhid Yunusov – PhD (Pedology), Senior Lecturer
Fergana State University

Nasibakhon Akhmedova – PhD (Pedology), Associate Professor
Fergana Region Pedagogical Skills Center


Nilufar Akhmedova – PhD (Pedology)
Customs Institute of the State Customs Committee

Ozodakhon Urinova – PhD in (Pedology), Associate Professor
Fergana State University

Rano Ismaylova – PhD (Psychology), Associate Professor
Alfraganus University

Sarvinoz Kosimova – PhD (Psychology), Associate Professor
Bukhara State University


Shuhrat Kudayberganov – PhD (Pedology), Associate Professor
Urgench State Pedagogical Institute



THE FORMATION AND DEVELOPMENT HISTORY OF MENTORSHIP AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PHENOMENON: A HISTORICAL AND ANALYTICAL APPROACH

Khasanboy Rakhimov¹.

¹ Andijan State Pedagogical Institute.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.20302315>

Key words: *mentorship, socio-pedagogical phenomenon, master–apprentice traditions, professional adaptation, educational effectiveness, learner-centered approach, pedagogical support, digital mentorship.*

ABSTRACT

This article examines the formation and historical development of mentorship as a socio-pedagogical phenomenon through a historical-analytical approach. The purpose of the study is to identify the historical roots, conceptual evolution, and role and functions of mentorship in the modern education system. The research employs historical-source analysis, comparative-analytical method, content analysis, systematization, generalization, pedagogical observation, interviews, and expert assessment. The findings show that mentorship developed on the basis of the master–apprentice tradition and that the moral and educational ideas found in the legacy of Eastern thinkers are conceptually consistent with modern principles of mentorship. Empirical analysis confirms that mentorship has a positive impact on professional adaptation, educational effectiveness, psychological support, and personal motivation. At the same time, lack of time and insufficient methodological support were identified as the main challenges. The study concludes that mentorship should be improved institutionally, methodologically, and digitally.

MENTORLIKNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK FENOMEN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI: TARIXIY-TAHLILY YONDASHUV

Kalit soʻzlar: *mentorlik, ijtimoiy-pedagogik fenomen, ustoz–shogird anʼanalari, kasbiy moslashuv, taʼlim samaradorligi, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv, pedagogik qoʻllab-quvvatlash, raqamli mentorlik.*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mentorlikning ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi tarixiy-tahliliy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi mentorlikning tarixiy ildizlari, mazmuniy evolyutsiyasi hamda zamonaviy taʼlim tizimidagi oʻrni va funksiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-manbashunoslik tahlili, qiyosiy-tahliliy metod, kontent-tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, suhbat va ekspert baholash metodlaridan foydalanilgan. Natijalar mentorlikning ustoz–shogird anʼanalari asosida shakllanganini, Sharq mutafakkirlari merosidagi axloqiy-tarbiyaviy gʻoyalar zamonaviy mentorlik tamoyillari bilan mazmunan uygʻun ekanini koʻrsatdi. Empirik tahlillar mentorlik kasbiy moslashuv, taʼlim samaradorligi, psixologik qoʻllab-quvvatlash va shaxsiy motivatsiyaga ijobiy taʼsir koʻrsatishini tasdiqladi. Shu bilan birga, vaqt tanqisligi va metodik taʼminot yetishmovchiligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Xulosa sifatida mentorlikni institutsional, metodik va raqamli jihatdan takomillashtirish zarurligi asoslandi.

Zamonaviy taʼlim tizimida shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi mentorlik faoliyatiga boʻlgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Mentorlik nafaqat bilim va tajribani uzatish vositasi, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbiy shakllanishi hamda individual rivojlanishini taʼminlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon boʻlmoqda [2, B.27]. Shu nuqtayi nazardan, mentorlikni ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida tadqiq etish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalar shuni koʻrsatadiki, mentorlikning dastlabki shakllari insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq ustoz–shogird munosabatlari orqali shakllangan [1, B.170]. Qadimgi sivilizatsiyalarda bilim, tajriba va ijtimoiy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish jarayoni, asosan, anʼanaviy taʼlim-tarbiya amaliyoti hamda bevosita shaxsiy muloqot asosida amalga oshirilgan. Keyingi tarixiy bosqichlarda ushbu jarayon Sharq va Gʻarb mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlari taʼsirida takomillashib, tizimli pedagogik faoliyat shakliga ega boʻlgan [7, B.52; 8, B.113].

Bugungi kunda mentorlik ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda [2, B.41]. Biroq uning shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda turli madaniy-ma'rifiy muhitlardagi evolyutsiyasi yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Ayniqsa, mentorlik fenomenining turli davrlar va madaniyatlar kesimidagi mazmuniy o'zgarishlarini tadqiq etish ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi mentorlikning ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun mentorlikning kelib chiqish manbalari, uning turli tarixiy bosqichlardagi mazmuni, ijtimoiy-pedagogik funksiyalari hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, tarixiylik, tizimlilik hamda ilmiylik tamoyillari tashkil etadi [2, B.18]. Tadqiqotda mentorlik fenomenining shakllanishi va rivojlanishi Sharq va G'arb pedagogik tafakkuri, ijtimoiy-falsafiy qarashlar hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar nuqtayi nazaridan o'rganiladi [7, B.44; 8, B.96]. Tadqiqot metodologiyasi mentorlikning tarixiy evolyutsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning ijtimoiy-pedagogik mohiyatini ochib berish hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va funksiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Tarixiy yondashuv

Tarixiy yondashuv mentorlik institutining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va turli davrlardagi pedagogik ahamiyatini tarixiy manbalar asosida o'rganish imkonini beradi [1, B.170]. Ushbu yondashuv orqali qadimgi Sharq mutafakkirlari, Uyg'onish davri allomalari hamda zamonaviy pedagogik maktablarning mentorlikka oid qarashlari tahlil qilinadi [7, B.58; 8, B.122].

Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuv doirasida mentorlik faoliyati yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda mentor, mentee, ta'lim muhiti, ijtimoiy omillar va pedagogik jarayon o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil etiladi [2, B.63]. Mazkur yondashuv mentorlikni alohida pedagogik harakat emas, balki murakkab ijtimoiy-pedagogik munosabatlar tizimi sifatida izohlash imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv mentorlik faoliyatining bosh maqsadi shaxsning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligini asoslaydi [2, B.71]. Mazkur yondashuv orqali mentor va ta'lim oluvchi o'rtasidagi hamkorlikning pedagogik-psixologik jihatlari, individual ehtiyojlarga mos ta'limiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish omillari yoritiladi.

Komparativ – qiyosiy yondashuv

Komparativ yondashuv Sharq va G'arb ta'lim tizimlarida mentorlik faoliyatining o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi. Turli mamlakatlar tajribasi asosida mentorlikning samarali modellari, ularning institutsional shakllari va pedagogik natijadorlik omillari aniqlanadi [2, B.88].

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv mentorlikning jamiyat taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlaridagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan [7, B.91]. Ushbu yondashuv mentorlikni ta'lim jarayonining ichki mexanizmi bilan bir qatorda, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- a) ilmiy-pedagogik, tarixiy va falsafiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- b) tarixiy-manbashunoslik tahlili;
- c) qiyosiy-tahliliy metod;
- d) kontent-tahlil;
- e) induktiv va deduktiv tahlil;
- f) tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari;

- g) pedagogik kuzatish;
- h) suhbat va ekspert baholash metodlari.

Tadqiqotning nazariy manbalari

Tadqiqotning nazariy asosini quyidagilar tashkil etadi:

- a) Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband kabi Sharq mutafakkirlarining ustoz-shogird munosabatlariga oid qarashlari [7, B.65; 8, B.133];
- b) zamonaviy pedagog olimlarning mentorlik va tutorlikka oid ilmiy ishlari [2, B.54];
- c) xalqaro ta'lim tashkilotlarining mentorlik bo'yicha konseptual yondashuvlari;
- d) O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

Tadqiqotning ilmiy tamoyillari

Tadqiqot quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

- a) obyektivlik;
- b) tarixiylik;
- c) izchillik;
- d) tizimlilik;
- e) ilmiylik;
- f) uzviylik;
- g) qiyosiylik;
- h) dalillilik [2, B.97].

Kutilayotgan ilmiy natijalar

Tadqiqot natijasida:

- a) mentorlikning ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatidagi ilmiy mohiyati ochib beriladi [2, B.101];
- b) mentorlikning tarixiy rivojlanish bosqichlari tizimlashtiriladi [1, B.184];
- c) Sharq mutafakkirlari merosida mentorlik g'oyalari tahlil qilinadi [7, B.118; 8, B.145];
- d) zamonaviy ta'lim tizimida mentorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, yosh pedagoglar va talabalar o'rtasida mentorlik faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan so'rovnomma va tahliliy ishlar amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 186 nafar respondent ishtirok etdi.

Tahlil natijalari mentorlik faoliyati ta'lim sifati, kasbiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi [2, B.109]. Xususan, mentorlik jarayoni ta'lim oluvchilarning kasbiy yo'nalishini aniqlash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvini jadallashtirish hamda ta'lim muhitida samarali kommunikativ munosabatlarni shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois mentorlikni zamonaviy ta'lim tizimida institutsional jihatdan rivojlantirish va uni pedagogik faoliyatning uzviy tarkibiy qismi sifatida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

1-jadval

Mentorlik faoliyati samaradorligi bo'yicha respondentlar fikri

№	Ko'rsatkichlar	Foiz (%)
1	Mentorlik kasbiy moslashuvni yengillashtiradi	84%
2	Mentorlik ta'lim samaradorligini oshiradi	78%
3	Mentor psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi	73%
4	Mentorlik motivatsiyani kuchaytiradi	81%
5	Mentorlik tizimida muammolar mavjud	62%

Tahlil natijalariga ko'ra, respondentlarning 84 foizi mentorlik yosh pedagoglar va talabalarning kasbiy moslashuv jarayonini yengillashtirishini ta'kidlagan. Shuningdek, ishtirokchilarning 78 foizi mentorlik ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etgan. Psixologik qo'llab-quvvatlash omillari yuzasidan respondentlarning 73 foizi ijobiy fikr bildirgan bo'lsa, 81 foizi mentorlik shaxsiy motivatsiyani kuchaytirishini tasdiqlagan.

Ushbu natijalar mentorlik faoliyatining kasbiy moslashuv, ta'lim sifati, psixologik barqarorlik va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatini empirik jihatdan asoslaydi.

Mentorlik tizimida uchraydigan asosiy muammolar

№	Muammolar	Foiz (%)
1	Mentorlar malakasining yetarli emasligi	48%
2	Amaliy metodikalar kamligi	56%
3	Vaqt tanqisligi	67%
4	Raqamli mentorlik platformalarining cheklanganligi	44%
5	Nazorat va baholash tizimining mukammal emasligi	52%

Natijalarga ko'ra, mentorlik tizimidagi eng muhim muammo sifatida vaqt tanqisligi qayd etildi. Respondentlarning 67 foizi aynan ushbu omil mentorlik faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Shuningdek, amaliy metodikalarning yetarli emasligi 56 foiz holatda kuzatilgani mentorlik jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida mentorlik faoliyatining tarixiy va zamonaviy modellari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, Sharq mutafakkirlari merosida shakllangan "ustoz–shogird" an'analari zamonaviy mentorlik tamoyillari bilan mazmunan uyg'un ekani aniqlandi. Bu holat mentorlikning tarixiy ildizlari va zamonaviy pedagogik amaliyot o'rtasida uzviy metodologik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

- a) mentorlikning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yuqori ekani aniqlandi;
- b) mentorlik ta'lim sifati va shaxsiy motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi empirik jihatdan asoslandi;
- c) tarixiy "ustoz–shogird" an'analari zamonaviy mentorlik tizimining muhim metodologik asosi sifatida belgilandi;
- d) mentorlik tizimida tashkiliy va metodik muammolar mavjudligi aniqlandi;
- e) mentorlik faoliyatini raqamlashtirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati asoslandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari mentorlikning zamonaviy ta'lim tizimida muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, respondentlarning aksariyati mentorlik kasbiy moslashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. Xususan, ishtirokchilarning 84 foizi mentorlik kasbiy moslashuv jarayonini yengillashtirishini qayd etgani mentor va mentee o'rtasidagi amaliy hamkorlik pedagogik adaptatsiya jarayonini jadallashtirishini ko'rsatadi. Mazkur holat zamonaviy pedagogik nazariyalarda ilgari surilgan "tajriba orqali o'qitish" konsepsiyasi bilan uyg'unlik kasb etadi. Tadqiqot natijalari Lev Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bilan hamohangdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, tajribali shaxs tomonidan ko'rsatiladigan maqsadli ko'mak ta'lim oluvchining intellektual, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini jadallashtiradi. Mentorlik jarayonida ham aynan shu mexanizm namoyon bo'ladi: mentor o'z tajribasi, maslahatlari va yo'naltiruvchi faoliyati orqali menteening mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, tadqiqotda mentorlik shaxsiy motivatsiyani oshirishi haqidagi natijalar Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan ham mos keladi. Chunki mentoring shaxsiy namunasi, kasbiy tajribasi va ijtimoiy xulq-atvori mentee uchun muhim motivatsion omil vazifasini bajaradi. Bu jarayonda mentee nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi, balki kasbiy qadriyatlar, kommunikativ madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat elementlarini ham egallaydi. Tahlil jarayonida Sharq mutafakkirlarining ustoz–shogird munosabatlariga oid qarashlari ham o'rganildi. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino asarlarida bilim berish jarayonida ma'naviy tarbiya, shaxsiy namuna, axloqiy ta'sir va ustoz mas'uliyati muhim o'rin egallashi ta'kidlangan. Ushbu jihatlar zamonaviy mentorlik tamoyillari bilan mazmunan uyg'un bo'lib, mentorlikni faqat kasbiy yo'naltirish vositasi emas, balki shaxsning har tomonlama kamolotini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, vaqt tanqisligi, metodik qo‘llanmalarining yetarli emasligi hamda mentorlar malakasining bir xil darajada emasligi mentorlik tizimi samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu holat mentorlik faoliyatini institutsional jihatdan yanada takomillashtirish, uning tashkiliy-huquqiy va metodik asoslarini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy izlanishlar bilan ham qisman mos keladi. Xorijiy tadqiqotlarda ham mentorlik kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni jadallashtirish, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Shu bilan birga, mahalliy ta‘lim tizimida mentorlik ko‘proq tarixiy “ustoz–shogird” an‘analari asosida shakllangani bilan ajralib turadi. Bu esa O‘zbekiston ta‘lim muhitida mentorlikni rivojlantirishda milliy pedagogik meros va zamonaviy innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari asosida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta‘lim muassasalarida mentorlik dasturlarini takomillashtirish;
- yosh pedagoglarni kasbiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish;
- raqamli mentorlik platformalarini joriy etish;
- mentorlar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklavlari ham mavjud. Tadqiqot cheklangan respondentlar doirasida o‘tkazilgani sababli olingan natijalarni barcha ta‘lim muassasalariga to‘liq umumlashtirish ma‘lum darajada ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shu bois kelgusida turli hududlar, ta‘lim bosqichlari va mutaxassislik yo‘nalishlarini qamrab olgan keng ko‘lamli empirik tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. *Avvalo*, mentorlik tushunchasi tarixiy va madaniy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lib, turli manbalarda insonni rivojlantirish, yo‘l ko‘rsatish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq holda talqin qilingan. *Ikkinchidan*, Sharq falsafiy merosida mentorlik, asosan, axloqiy va ma‘naviy kamolotga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda uning kasbiy, amaliy va institutsional jihatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. *Uchinchidan*, mentorlikning samarali modeli bilim berish, tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish, kasbiy yo‘naltirish va ijtimoiy rivojlanishni yagona tizimda birlashtirishni talab etadi. Bu esa mentorlikning integrativ xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari mentorlikni zamonaviy ta‘lim tizimiga keng joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur jarayon yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning intellektual, axloqiy, kasbiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sharq falsafiy merosiga asoslangan mentorlik modeli zamonaviy ta‘lim tizimini mazmunan boyitish, uning samaradorligini oshirish hamda ta‘lim oluvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy mentorlik komponentlari.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari mentorlikning ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy, madaniy va pedagogik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Mentorlikning dastlabki ko‘rinishlari insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq ustoz–shogird munosabatlari asosida vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik Sharq va G‘arb pedagogik tafakkuri, ijtimoiy-falsafiy qarashlar hamda zamonaviy ta‘lim konsepsiyalari ta‘sirida tizimli pedagogik faoliyat shakliga ega bo‘lgan. Tadqiqotda mentorlik nafaqat bilim va tajribani uzatish vositasi, balki shaxsning kasbiy shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi, motivatsiyasi va individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida talqin etildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mentorlik zamonaviy ta‘lim tizimida ta‘lim sifati va pedagogik samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Respondentlar fikriga ko‘ra, mentorlik yosh pedagoglar va talabalarning kasbiy moslashuvini yengillashtiradi, ularning shaxsiy motivatsiyasini kuchaytiradi hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ishtirokchilarning 84 foizi mentorlik kasbiy moslashuvga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, 78 foizi esa ta‘lim samaradorligini oshirishini qayd etgani ushbu faoliyatning empirik jihatdan asoslangan ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, mentorlik jarayonining Lev Vygotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi va Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish konsepsiyasi bilan mazmunan uyg‘unligi uning nazariy asoslari mustahkam ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida Sharq mutafakkirlari merosidagi ustoz–shogird an‘analari zamonaviy mentorlik tamoyillari bilan bevosita aloqador ekani aniqlandi. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino qarashlarida ustozning shaxsiy namunasi, axloqiy ta‘siri va tarbiyaviy mas‘uliyati alohida o‘rin tutadi. Bu jihatlar zamonaviy mentorlikning faqat kasbiy yo‘naltirish emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan integrativ pedagogik jarayon ekanini asoslaydi. Shu bilan birga, tadqiqot mentorlik tizimida vaqt tanqisligi, amaliy metodikalarning yetarli emasligi va mentorlar malakasidagi tafovutlar kabi muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Bu holat mentorlikni institutsional, metodik va tashkiliy jihatdan takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy va empirik xulosalardan kelib chiqib, oliy ta‘lim muassasalarida mentorlik dasturlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda mentorlik faoliyati tasodifiy yoki norasmiy ko‘mak shaklida emas, balki aniq maqsad, vazifa, metodik mezon va natijadorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan tizimli pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Yosh pedagoglarni kasbiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, mentor va mentee o‘rtasidagi hamkorlikni muntazam metodik asosda yo‘lga qo‘yish, shuningdek, mentorlar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Tadqiqotda aniqlangan vaqt tanqisligi va metodik ta‘minot yetishmovchiligi muammolarini bartaraf etish uchun mentorlik jarayoniga raqamli platformalarni joriy etish ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy pedagogik merosdagi ustoz–shogird an‘analarini zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish mentorlik tizimining ilmiy-metodologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Homer. (1996). The Odyssey. Penguin Classics.
2. Kram, K. E. (1985). Mentoring at work: Developmental relationships in organizational life. Glenview, IL: Scott, Foresman.
3. The Holy Bible, New International Version. (2011). Biblica.
4. The Holy Bible, English Standard Version. (2001). Crossway.
5. Qur'an. (2004). The Qur'an. Oxford University Press.
6. Al-Bukhari, M. I. (2002). Al-Adab al-Mufrad. Islamic Book Trust.
7. Al-Ghazali, A. H. (2005). Ihya Ulum al-Din. Islamic Book Trust.
8. Ibn Sina. (2005). The Book of Healing (Kitab al-Shifa).

ILMIY TAQRIZ

Taqriz qilinayotgan maqola mentorlikning ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada mentorlik tushunchasining tarixiy ildizlari, uning Sharq pedagogik tafakkuridagi "ustoz–shogird" an'analari bilan bog'liqligi hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi funksional ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif mavzuni nazariy va empirik jihatdan yoritishga intilgan bo'lib, bu maqolaning ilmiy-amaliy qiymatini oshiradi. Maqolaning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kasbiy moslashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va ta'lim samaradorligini oshirish masalalarining tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani bilan belgilanadi. Ayniqsa, yosh pedagoglar va talabalarni kasbiy rivojlantirishda mentorlik mexanizmlaridan foydalanish bugungi pedagogik amaliyot uchun muhim masalalardan biridir. Shu jihatdan maqola mavzusi nazariy pedagogika va amaliy ta'lim jarayoni uchun dolzarb hisoblanadi.

Maqolaning ilmiy yangiligi mentorlikni faqat individual maslahat yoki tajriba almashish shakli sifatida emas, balki tarixiy, madaniy, ijtimoiy va pedagogik omillar bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida talqin etilishida namoyon bo'ladi. Muallif Sharq mutafakkirlari merosidagi ustoz–shogird munosabatlarini zamonaviy mentorlik tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilgan. Bu yondashuv milliy pedagogik meros va zamonaviy ta'lim konsepsiyalari o'rtasidagi uzviylikni ko'rsatishga xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda mentorlik faoliyatini oliy ta'lim muassasalarida takomillashtirish, yosh pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, mentorlar malakasini oshirish va raqamli mentorlik platformalarini joriy etish zarurati asoslangan.

Mazkur tavsiyalar ta'lim jarayonini metodik jihatdan boyitish hamda mentorlikni institutsional darajada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada qo'llangan metodologik yondashuvlar – tarixiy-manbashunoslik tahlili, qiyosiy-tahliliy metod, kontent-tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, suhbat va ekspert baholash metodlari – tadqiqot maqsadiga mos keladi. 186 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan empirik tahlil natijalari maqolaning dalillilik darajasini oshiradi. Respondentlar fikrlari asosida mentorlikning kasbiy moslashuv, motivatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash va ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'siri ko'rsatib berilgan.

Maqolaning kuchli jihatlari sifatida mavzuning dolzarbligi, tarixiy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unlashtirilgani, empirik ma'lumotlardan foydalanilgani hamda amaliy tavsiyalarning berilganini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, ayrim jihatlari yanada takomillashtirilishi mumkin. Jumladan, respondentlar tarkibi, tanlanma mezonlari va so'rovnoma natijalarini tahlil qilish mexanizmlari batafsilroq yoritilsa, tadqiqot natijalarining ishonchiligi yanada kuchaygan bo'lardi. Shuningdek, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlilni kengaytirish maqolaning ilmiy salmog'ini oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqola ilmiy jihatdan asoslangan, dolzarb mavzuga bag'ishlangan va amaliy ahamiyatga ega tadqiqot hisoblanadi. Unda ilgari surilgan xulosalar muallifning ilmiy pozitsiyasi bilan mantiqan bog'langan hamda maqola akademik nashr talablariga javob beradi. Shunga ko'ra ushbu maqolani IMFAKTOR ilmiy jurnalida chop etishga tavsiya etish mumkin.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Pedagogical & Psychological Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.